

## **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori**

### **Nooziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunini va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2024-yil 28-fevraldagи PQ-91-son qaroriga muvofiq nooziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi**:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi nooziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni (keyingi o‘rinlarda – Texnik reglament) ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

mahsulotlar xavfsizligi va unga o‘rnatilgan umumiyl talablar;

mahsulot xavfsizligini baholash jihatlari;

iste’molchilarining (foydalanuvchilarining) mahsulot xavfsizligiga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish;

mahsulot xavfsizligiga oid umumiyl talablarga muvofiq kelmaydigan mahsulot to‘g‘risida xabar berish.

2. Texnik reglament rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab olti oy o‘tgandan keyin amalga kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda texnik reglamentning maqsadlari hamda mazmuni to‘g‘risida aholi, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamda tadbirkorlik sub’ektlarining keng xabardor qilinishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori A.R.Jumanazarov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**

**A. Aripov**

**Vazirlar Mahkamasining 2024-yil \_\_\_\_-  
\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-son qaroriga  
ILOVA**

**Nooziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risidagi  
texnik reglamenti**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**1-§. Texnik reglamentning maqsadi va uni qo‘llash doirasi**

1. Ushbu texnik reglament O‘zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilayotgan nooziq-ovqat mahsulotlari (keyingi o‘rinlarda - mahsulotlar) ning umumiy xavfsizligi talablarini belgilaydi.

2. Ushbu texnik reglament mahsulotlarning muayyan turlariga tegishli texnik reglamentlar bilan xavfsizligini ta’minlashga oid maxsus talablar belgilanmagan barcha mahsulotlarga tatbiq etiladi, bundan ushbu reglamentning 4-bandida ko‘rsatilgan mahsulotlar turlari mustasno.

3. Mahsulotlarning muayyan turlari xavfsizligini ta’minlashga oid maxsus talablar boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan bo‘lsa, ushbu texnik reglamentning talablari tegishli hujjatlar bilan tartibga solinmagan qismida qo‘llaniladi.

4. Ushbu texnik reglamentning amal qilishi quyidagilarga tatbiq etilmaydi:  
ozuqa, ozuqa qo‘sishimchalar va boyitilgan aralashmalar;  
tirik hayvonlar va o‘simliklar, ulardan olingan masulotlar;  
spirit, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlari;  
dori vositalari va veterinariya preparatlari;  
giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlar;

yadro materiallari, yadro energiyasidan foydalanish sohasidagi boshqa mahsulotlarga parchalanadigan maxsus materiallar;

harbiy maqsadda qo‘llaniladigan buyumlar;  
antikvar sifatida yetkazib berilgan yoki foydalanishdan oldin ta’mirlanishi yoki tiklanishi kerak bo‘lgan mahsulotlar.

5. Ushbu reglamentning 4-bandida ko‘rsatilgan mahsulotlar xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyat qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

6. Ushbu texnik reglament talablari sotish usulidan qat‘i nazar, barcha mahsulotlarga, shu jumladan elektron savdo va boshqa masofaviy aloqa vositalari orqali amalga oshiriladigan savdolarga nisbatan qo‘llaniladi.

**2-§. Atamalar va ta’riflar**

7. Mazkur texnik reglamentda quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalaniladi:

**jamoat manfaatlari** – insonlar hayoti va sog‘lig‘ining xavfsizligi, xavfsiz mehnat sharoitlari, iste’molchilar (foydalanuvchilar) huquqlarini hamda atrof muhitni himoya qilish;

**iste’molchi** — foyda chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste’mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoni shaxs);

**ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili** — ishlab chiqaruvchi (chet el ishlab chiqaruvchisi) bilan tuzilgan shartnomaga asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida mahsulotning muvofiqligini baholashda va uni muomalaga chiqarishda ushbu ishlab chiqaruvchi nomidan harakatlarni amalga oshiradigan tadbirkorlik sub’ekti;

**mahsulot** – moddiy-ashyoviy shaklda taqdim etilgan hamda xo‘jalik va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan faoliyat natijasi;

**mahsulotni import qiluvchi** – O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasida o‘zining vakolatli vakiliga ega bo‘lmagan mahsulotni ishlab chiqaruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

**mahsulot xavfsizligini ta’minlash** – O‘zbekiston Respublikasi bozorida muomalaga chiqarilgan mahsulotning nooziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga oid umumiyl talablarga muvofiqligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruchilar, davlat nazorati organlari tomonidan ko‘riladigan chora-tadbirlar majmui;

**mahsulotni yetkazib berish zanjiri** – mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga (foydalanuvchiga) yetkazib berishni ta’minlaydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ketma-ketligi;

**mahsulotni muomalaga chiqarish** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish maqsadida mahsulotni yetkazib berish (realizatsiya qilish) yoki olib kirish (ishlab chiqaruvchining omboridan jo‘natish yoki omborga yuklamasdan jo‘natish);

**muomaladan chiqarish** – etkazib beruvchilar tomonidan yetkazib berish zanjirida bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchiga qaytarilishini va xaridorlarga (iste’molchilarga) bunday mahsulotni taklif etish tugatilishiga qaratilgan har qanday tadbir;

**chaqirib olish** – iste’molchiga (foydalanuvchiga) taqdim etilgan mahsulotning qaytarilishini ta’minlashga qaratilgan har qanday tadbir;

**xavfsiz nooziq-ovqat mahsulotlari** – odadagi yoki asoslangan ko‘zda tutilgan foydalanish sharoitlarida (shu jumladan xizmat muddati to‘g‘risida hamda o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatishga oid talablarni joriy etish zarur bo‘lganda) hech qanday xavf-xatar tug‘dirmaydigan yoki faqatgina bunday mahsulotdan foydalanish bilan bog‘liq, maqbul hisoblanadigan va quyidagilarni hisobga olgan holda jamoat manfaatlariiga tahdidni yuzaga keltirmaydigan minimal xavf-xatarga ega har qanday mahsulot;

mahsulotning xususiyatlarini, shu jumladan uning tarkibi, qadog‘i, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatishga oid talablarni;

agar mahsulot boshqa mahsulot bilan birga foydalanilsa mahsulotning boshqa mahsulotga ta'siri;

mahsulotning yorlig'ida, undan foydalanish va uni yo'q qilish bo'yicha yo'riqnomalarda, shuningdek mahsulot to'g'risidagi boshqa axborotda mavjud bo'lган ogohlantirishlarni;

mahsulotning aholining ayrim toifalari (bolalar, homilador ayollar, keksa yoshdagi kishilar va h.k.) tomonidan iste'mol qilinishi yoki foydalanilishiga oid shartlarni;

**xavfli nooziq-ovqat mahsuloti** – “xavfsiz nooziq-ovqat mahsuloti” atamasi ta'rifiga muvofiq kelmaydigan har qanday mahsulot;

**xavf-xatar** – zarar keltiruvchi xavfning yuzaga kelish ehtimoli va ushbu zararning og'irlik darajasi;

**xavf-xatar darajasi** – mahsulotda mavjud bo'lган yoki mavjud bo'lishi mumkin bo'lган jamoat manfaatlariga xavf (tahdid) darajasi;

**yuqori xavf-xatar** – davlat organlarining tezkor tarzda aralashuvini talab qiladigan jamoat manfaatlariga har qanday tahdid, shu jumladan oqibatlari darhol namoyon bo'lmaydigan tahdid.

## **2-bob. Mahsulotlar xavfsizligiga oid umumiyl talablar**

### **3-§. Mahsulotlar xavfsizligi va unga o'rnatilgan umumiyl talablar**

8. Ishlab chiqaruvchilar faqatgina xavfsiz mahsulotni muomalaga chiqarishlari shart.

9. Agar mahsulot qonunchilikda belgilangan mahsulot xavfsizligini ta'minlashga oid talablarga muvofiq kelsa, u xavfsiz hisoblanadi.

10. Ushbu paragrafning 9-bandiga asosan qonunchilikda tegishli mahsulot xavfsizligini ta'minlashga oid talablar mavjud bo'lмаган taqdirda, davlat nazorati organi bunday mahsulot xavfli ekanligini isbotlay olmasa, bunday mahsulot xavfsiz hisoblanadi.

11. Mahsulotning tegishli xalqaro yoki Yevropa standartlari bilan uyg'unlashtirilgan milliy standartlarga muvofiqligi uning xavfsizligi dalili hisoblanadi. Bunday uyg'unlashtirilgan milliy standartlar ro'yxati standartlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan shakllantiriladi. Ushbu ro'yxat har yili 1 yanvar holatiga Agentlikning rasmiy saytida joylashtirish yo'li bilan e'lon qilinadi.

12. Mahsulot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar ushbu paragrafning 11-bandida belgilangan milliy standartlar mavjud bo'lмагана yoki qo'llanilmaganda, davlat nazorati organi mahsulot xavfli ekanligini isbotlashda quyidagi ketma-ketlikni hisobga olishi mumkin:

a) horijiy davlatlarning tegishli Yevropa va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot xavfsizligini ta'minlashga oid milliy standartlari;

b) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq mahsulot xavfsizligini ta’minlashga oid mintaqaviy standartlar;

v) ushbu paragrafning 12-bandida belgilangan standartlardan tashqari O‘zbekiston Respublikasining mahsulot xavfsizligini ta’minlashga oid standartlari;

g) mahsulot xavfsizligi sohasidagi ilm-fan va texnika yutuqlari;

d) iste’molchilarning (foydalanuvchilarning) odatdagi yoki asoslangan ko‘zda tutilgan foydalanish shartlarida (shu jumladan xizmat muddati to‘g‘risida hamda o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha talablarni joriy etish zarur bo‘lganda) mahsulot xavfsizligi ta’minlanishiga nisbatan kutilmalari.

13. Mahsulot faqatgina mahsulot xavfsizligining yuqori darajasiga erishish imkoniyati mavjudligi yoki bozorda kamroq xavf-xatar darajasiga ega boshqa mahsulot taklif qilinishi asosida xavfli hisoblanishi mumkin emas.

#### **4-§. Mahsulotlar xavfsizligini baholash jihatlari**

14. Mahsulotlar xavfsiz hisoblanishi yoki hisoblanmasligini baholashda, xususan, quyidagi jihatlar hisobga olinadi:

a) mahsulotning tavsiflari, shu jumladan uning konstruksiyasi, texnik tavsiflari, tarkibi, qadog‘i, yig‘ish va o‘rnatish, foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomalar;

b) agar mahsulot boshqa mahsulotlar bilan foydalanilishi, shu jumladan ushbu mahsulotlarning o‘zaro bog‘liqligi taxmin qilinsa, boshqa mahsulotlarga ta’siri;

v) mahsulotning tashqi ko‘rinishi, tamg‘alanishi, shu jumladan bolalarning yoshiga muvofiqligi to‘g‘risidagi tamg‘asi, undan xavfsiz foydalanish va utilizatsiya qilish bo‘yicha har qanday ogohlantirish va yo‘riqnomalar, shuningdek mahsulotga taalluqli har qanday boshqa ko‘rsatmalar yoki ma‘lumotlar;

g) bolalar, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslar kabi himoyaga muhtoj iste’molchilar uchun xavf-xatarni, shuningdek genderga doir farqlarning sog‘liq va xavfsizlikka ta’sirini baholagan holda mahsulotdan foydalanuvchi iste’molchilar toifalari;

d) iste’molchilar mahsulotni ishlab chiqilganiga nisbatan o‘zgacha tarzda foydalanishi mumkin bo‘lgan mahsulotning tashqi ko‘rinishi, xususan:

garchi mahsulot oziq-ovqat mahsuloti bo‘lmasa-da, oziq-ovqat mahsulotini eslatса va uning shakli, hidi, rangi, tashqi ko‘rinishi, qadog‘i, tamg‘alanishi, hajmi, o‘lchami yoki boshqa tavsiflari tufayli uni oziq-ovqat mahsuloti bilan adashtirish mumkin bo‘lsa va shu bois uni og‘izga solish, so‘rish yoki iste’molchilarning, ayniqsa bolalarning organizmiga tushishi mumkin bo‘lsa;

garchi mahsulot bolalar foydalanilishi uchun mo‘ljallanmagan bo‘lsa-da, bolalar tomonidan foydalanish ehtimoli bo‘lsa yoki odatda bolalar uchun jozibador sanaladigan yoxud dizayni, qadog‘i yoki tavsiflari tufayli bolalar foydalanishi uchun mo‘ljallangan ob’ektni eslatса;

agar mahsulotning rivojlantiruvchi, o‘rgatuvchi va prognoz qiluvchi funksiyalari tavsif berilishini talab qilsa.

15. Xavfsizlikning yanada yuqori darajasiga erishish imkoniyati yoki kamroq xavf-xatar darajasiga ega boshqa mahsulotning mavjudligi mahsulotni xavfli deb e’tirof etish uchun asos hisoblanmaydi.

### **5-§. Iste’molchilarining (foydalanuvchilarining) mahsulotlar xavfsizligiga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi murojaati**

16. Iste’molchilar (foydalanuvchilar) davlat nazorati organlariga xavfsiz mahsulotga bo‘lgan buzilgan huquqlarini himoya qilish yuzasidan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

17. Davlat nazorati organlari iste’molchilarining (foydalanuvchilarining) bunday murojaatlari sabablari va sonini monitoring qilish maqsadida belgilangan tartibda ularning hisobini yuritadilar.

18. Iste’molchilarining (foydalanuvchilarining) murojaatlari asosida mahsulot tavsiflarining xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshiruvdan o‘tkazish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

19. Iste’molchilarining (foydalanuvchilarining) xavfsiz mahsulotga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish yuzasidan murojaat qilishi tartibi to‘g‘risidagi va murojaatlар yo‘llanishi mumkin bo‘lgan pochta manzillari to‘g‘risidagi axborot davlat nazorati organlari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya qilish ustidan davlat nazorati sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi ijro etuvchi hokimiyat mas’ul organlarning rasmiy saytlarida joylashtiriladi.

### **3-bob. Ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va vakolatli davlat**

#### **nazorati organlarning majburiyatları**

### **6-§. Ishlab chiqaruvchilarining majburiyatları**

20. Ishlab chiqaruvchilar:

xavfsiz mahsulotni muomalaga chiqarishi;

qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda mahsulotda yoki uning qadog‘ida ishlab chiqaruvchining nomi va joylashgan joyi, modelning nomi, turi yoki raqami, to‘p yoki seriya raqami, tarkibiy qismlarning nomi va shu kabi ma’lumotlarni ko‘rsatishi;

o‘z tashabbusiga ko‘ra ularning savdo belgisi ostida muomalaga chiqarilgan mahsulot namunalarini sinovdan o‘tkazish orqali iste’molchilarni mahsulot bilan bog‘liq xatarlar to‘g‘risida yetarli darajada va samarali ogohlantirilishini ta’minlashi;

tegishli muomalaga chiqarilgan mahsulotlarning xavfsizligi yuzasidan iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ko'rib chiqish natijalari bo'yicha zarur choralar ko'rish va bunday murojaatlar hisobini yuritishi;

ishlab chiqarilgan mahsulotning tavsiflarini hisobga olgan holda quyidagilarga doir choralar ko'rishi:

iste'molchilarni ushbu mahsulot keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar yuzasidan xabardor qilishi;

xavf-xatarlarni oldini olish, jumladan, mahsulotlarni muomaladan chiqarishi, iste'molchilarni mahsulotlar keltirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar haqida ogohlantirishi, mahsulotni chaqirib olishi;

muomalaga kiritilgan mahsulot mazkur reglament talablariga zid ravishda iste'molchilar uchun xavf-xatarni keltirib chiqarishi mumkinligi ishlab chiqaruvchiga ma'lum bo'lgan yoki unda mavjud bo'lgan axborot asosida oldindan ma'lum bo'lish ehtimoli bo'lsa, bu haqda, shuningdek bunday mahsulot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqida darhol tegishli davlat nazorati organiga xabar berish;

agar tegishli mahsulot ishlab chiqaruvchi tomonidan muomalaga chiqarilgan bo'lsa, davlat nazorati organlari bilan xavf-xatarlarning oldini olish masalalari bo'yicha hamkorlik qilishi kerak.

## **7-§. Yetkazib beruvchilarning majburiyatları**

### **21. Yetkazib beruvchilar:**

iste'molchilarga, shuningdek tegishli mahsulotni yetkazib berish zanjiridagi ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilarga ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan xavf-xatarlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishi;

tegishli davlat nazorati organi va boshqa manfaatdor shaxslarga tegishli mahsulotning kelib chiqishini kuzatib borish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishi;

yetkazib berilgan mahsulot xavf-xatarining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda ishlab chiqaruvchilar va davlat nazorati organlari bilan hamkorlik qilishi;

ishlab chiqaruvchilarga ular tomonidan mahsulot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rinishida ko'maklashishi;

ular yetkazib bergen mahsulot mazkur reglament talablariga zid ravishda iste'molchilar uchun xavf-xatarni keltirib chiqarishi mumkinligi ularga ma'lum bo'lib qolgan yoki ularda mavjud bo'lgan axborot asosida oldindan ma'lum bo'lishi ehtimoli bo'lsa, bu haqda, shuningdek bunday mahsulot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqida darhol tegishli davlat nazorati organiga xabar berish;

agar tegishli mahsulot ular tomonidan yetkazib berilgan yoki yetkazib berilayotgan bo‘lsa, davlat nazorati organlari bilan xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish masalalari bo‘yicha hamkorlik qilishi kerak.

## **8-§. Vakolatli davlat nazorati organlari majburiyatları**

22. Mahsulotlarning muayyan turlariga tegishli texnik reglamentlar mavjud bo‘lmagan yoki texnik reglamentlarda inson salomatligi va xavfsizligi bilan bog‘liq qoidalar mavjud bo‘lmagan yoki muayyan xavf-xatar darajalari bilan bog‘liq talablar mavjud bo‘lmagan hollarda, vakolatli davlat nazorati organlari mazkur texnik reglament bilan ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar uchun belgilangan majburiatlarga rioya qilishlarini ta’minlashi shart.

23. Mahsulotlarning mazkur texnik reglament bilan belgilangan mahsulot xavfsizligining umumiy talablariga muvofiqligini nazorat qilish davlat nazorati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

## **9-§. Mahsulotlar xavfsizligiga oid umumiy talablarga muvofiq kelmaydigan mahsulot to‘g‘risida xabar berish**

24. Mahsulot uning xavfsizligiga oid umumiy talablarga muvofiq kelmagan taqdirda uni ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi davlat nazorati organiga belgilangan tartibda bunday mahsulot to‘g‘risidagi xabarni taqdim etishi kerak.

25. Agar ushbu reglamentning 24-bandida ko‘rsatilgan mahsulot yuqori xavf tug‘dirsa, xabarnomada quyidagilar ham ko‘rsatiladi:

tegishli mahsulotni identifikasiya qilish imkonini beruvchi ma’lumotlarni;

mahsulot keltirib chiqaradigan xavfning tavsifini, bunday mahsulot namunalarini sinash natijasini;

xavfni bartaraf etish uchun ko‘rilgan choralarining (agar bunday choralar ko‘rilgan bo‘lsa), shu jumladan ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi va (yoki) import qiluvchi tomonidan o‘z tashabbusiga ko‘ra ko‘rilgan choralarining xususiyati va davomiyligi to‘g‘risidagi axborotni;

ushbu mahsulotning kelib chiqishi va bozorga yetkazib berilishi zanjiri haqidagi axborotni;

xalqaro, mintaqaviy va chet el xabar qilish tizimlari yordamida yoki boshqa davlatlarning vakolatli organlaridan boshqacha tarzda olingan ma’lumotlarni.

## **4-bob. Texnik reglament talablari buzilganligi uchun javobgarlik**

26. Mazkur texnik reglament talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq javob beradilar.